

**YOSH MUTAXASISLARDA KOMPETINTLIKNI SHAKILLANTIRISHNING AXAMIYATLILIGI
VA MOHIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11116805>

Turdiqulova Nilufar To'liqin qizi

O'zbekiston Milliy univisteti o'qituvchisi

Турдикулова Нилюфар Тулкиновна

Преподаватель Национального Университета Узбекистана

Turdikulova Nilyufar Tulkinovna

Lecturer at the National University of Uzbekistano

Annotatsiya: *Ta'lim jarayoning turli soxa tizimlaridagi yutuqlarning asosi maktablar, kollej va litseylar xususan oliy talimda ham tashkil etiladigan dars jarayonlarining sifati va samaradorli ekanligi bilan belgilanadi. Dars jarayonida ta'lim oluvchilarga yetarli bilim erish hayotiy va kasbiy ko'nikmalarini oshirish va malakalarini shakillantirish ta'lim beruvchi ya'ni pedagogning kompetensiyasiga bog'liq. Shu bois pedagogika fanida kompetensiya tushunchasi o'ziga xos mazmun kasb etadi.*

Tayanch so'zlar: *Bilim, ko'nikma, malaka, nazariya, o'zlashtirish, samaradorlik, kompetensiya, faoliyat. Kasbiy faoliyat.*

Абстрактный: *Основа успеха в различных системах образовательного процесса определяется качеством и эффективностью учебного процесса, организованного в школах, колледжах и лицеях, особенно в высших учебных заведениях. От компетентности учителя, то есть педагога, зависит получение достаточных знаний обучающихся в ходе урока, совершенствование их жизненных и профессиональных навыков, формирование их квалификации. Поэтому понятие компетентности в педагогике имеет свой смысл.*

Ключевые слова: *знание, умение, компетентность, теория, мастерство, эффективность, компетентность, активность. Профессиональная деятельность.*

Abstract *The basis of success in various systems of the educational process is determined by the quality and effectiveness of teaching processes organized in schools, colleges and lyceums, especially in higher education. It depends on the competence of the teacher, i.e. the pedagogue, to gain sufficient knowledge of the learners during the lesson, to improve their life and professional skills and to form their qualifications. Therefore, the concept of competence in pedagogy has its own meaning.*

Key words: *knowledge, skill, competence, theory, mastery, efficiency, competency, activity. Professional activity.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-son qarorida "pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish" vazifasi belgilangan.¹¹

Mustaqillik davrida komil insonni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi. Buni amalga oshirishning metodologik, pedagogik va psixologik asoslari "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da o'zining ilmiy ifodasini topgan. Unda: "O'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi," deb ta'kidlanadi. Bu vazifalarni yechishda ilmiy hamda amaliy asosda tashkil qilingan tarbiya muhim rol o'ynaydi. Pedagoglardan esa ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borish; yoshlarni nafaqat bilimli, balki ma'naviy, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo'yicha ta'sirchan pedagogik choralarni belgilash; yoshlarni diniy-ekstremistik g'oyalar, turli axborot xurujlari ta'siridan himoya qilish yo'llarini izlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish; yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil, ijodiy, mantiqiy, konstruktiv mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlashiga erishish; yoshlarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarni hamda faol hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish; har bir yoshning shaxsiy rivojlanishiga sharoit yaratib berishi kerakligi nazarda tutiladi.¹²

Jamiyat tomonidan pedagogik faoliyatga nisbatan etibor va e'tirofni ortishi va zamonaviy, yosh kadrlarni jamiyat va faoliyatga sho'ng'ish jarayonlarini samaradorligini oshirish yo'lida kompetensiya, pedagogik kompetensiya tushunchalari mohiyati va mazmuni bilan talabalar va kadrlar auditoriyasini kengroq qamrab olish hozirgi kun uchun ahamiyatlidir.

Kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilar bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir: - Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq. - Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-son qarori. 2020 yil 27 fevral.

¹² Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori.

hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan. - Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir. Kompetensiyaning har bir turi ko'nikmalar, bilimlar, ko'nikmalar to'plamini o'z ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo'ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko'rsatkichlariga e'tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin. Kompetentlik qanday shakllanadi? O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi.

Kompetensiya (lotincha "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishaman, muvofiqman, mos kelaman" ma'nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi 20-asrning 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi. Bunga sabab pedagogik jarayonga va faoliyatga nisbatan jamiyat talablari ortib boshlaganini sabab qilib ko'rsatiladi. Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u o'quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.¹³

Pedagogik kompetensiya ta'lim beruvchilarining turli o'quv usullari va talabalarining turli o'quv stili va talablari uchun samarali dars materiallarini tuzish va taqdim etishga qodir bo'lishi bilan bog'liq jarayondir. Asosiy qismlar ta'lim nazariyalarni tushunish, mos ta'lim usullaridan foydalanish va o'quvchilarning o'rganish natijalarini o'lchash uchun baholash strategiyalarini amalga oshirishni o'z ichiga qamrab oladi. Pedagogik kompetensiya, o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirish, doimiy o'rganishlar va intilishlarni rag'batlantirish jarayoni qiziqarli va samarali tashkil etish uchun jamoa va kirishuvchi o'rganish muhitini yaratish uchun ahamiyatga ega. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish

¹³ Ibragimova G.N. Interfaol ukitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarining kreativlik kobiliyatlarini rivojlantirish. / Monografiya. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2016. – B. 77.

jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. ¹⁴Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir. Kompetensiya so'zining asil mohiyatiga nazar soladigan bo'sak . Nazariy bilimlarni amaliyotda samarali foydalanish yuqori darajadagi kasbiy malaka va mahorat va iqtidorni nomoyon eta olish bilim ko'nikmalari haqida fikr yuritadigan jarayoni tashkil etadi. Shunga ko'ra pedagogik jarayonda chuqur o'zlashtirilgan bilimlar bilan birgalikda aynan o'rganilgan bilimlar , fikrlar g'oyalar va qarashlarni o'quvchilar uchun ilmiylik asoslangan xolatda oddiy sodda o'quvchi uchun tushunarli tilda bayon eta olish, tushuntirishning yuksak darjada qo'llay olish jarayoni. Yosh kadrlar pedagogik jarayonga kirib kelishlari faoliyatni samarali yo'lga qo'ya olishlari faoliyatni samaradorligini oshirish maqsadida talabalarda pedagogik mahorat auditoriya bilan ishlay olish ko'nikmalari, auditoriyaga beriladigan ma'lumatlarni o'quvchilar va talabalar izchil va tushunarli bilimlarni o'zlashtirishlari va fanga mavzuga nisbatan ijobiy fikrlar uyg'otishga eng ahamiyatli sanaladi. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi. Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra

¹⁴ National University of Uzbekistan Vol 4 | NUU Conference 2 | 2023 Google Scholar indexed *Current Issues of Social Sciences and Humanities*
DOI:10.24412/2181-1385-2023-2-8-18 Kitobxinlik buyuk kelajak poydevori. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. 698-703betlar*

olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir. Kompetensiya tushunchasi umuman olganda qobiliyat deb qaralsa bu qobiliyatni faoliyatga kasbiy jarayonga yo'n altiriladi. O'z -o'zidan Kasbiy kompetensiya jarayoniga aylanadi. Har qanday pedagogik jarayoni tashkil etishga tayyorlanayotgan talabalar o'zlashtirgan bilim ko'nikma malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Talim jarayonida talim oluvchining bilmaslikdan bilishga tomon, oddiydan murakkabga tomon, uncha tuliq bo'lmagan bilimdan ancha to'liq, aniqroq va chuqurroq bo'lgan bilim tomon sodir bo'ladigan jarayondir. Bu talim beruvchi rahbarligida amalga oshiriladi. Talim beruvchi bilim egallash yo'llarini talim oluvchilarga ko'rsatadi, ya'ni kishilik jamiyati tomonidan bor, hamda bunday bilimlarga ega bo'lmagan bola ongida vositachilik qiladi. Talim beruvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi. Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi.

Standart kompetensiya-ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati.

Asosiy kompetensiya-ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati.

Yetakchi kompetensiya-kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati

Pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishi va mazmuni.

1. Pedagogning kasbiy kompetentligi tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:
2. pedagogning ish sohasi bo'yicha kompetentligi - uzluksiz ta'lim tizimini o'z ichiga oladi;
3. ixtisoslik bo'yicha kompetentligi - o'qituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, kasb ta'limi o'qituvchisi, ishlab chiqarish ustasi;
4. pedagogning faoliyati yo'nalgan obyekt bo'yicha kompetentligi - o'quvchilar, ota-onalar, sinf jamoasi, sotsium va boshqalar;
5. -pedagogning faoliyati turi bo'yicha kompetentligi motivatsion, gnostik, metodologik, metodik, informatsion, kommunikativ, reflektiv, prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik, korreksion va boshqalar;
6. Psixolog olimlar fikricha "muhim kompetensiya"larni shaxsning turli kasbiy uyushmalarda moslashish va samarali faoliyat ko'rsatish uchun ma'lum ishlarni bajarishda zarur bo'ladigan umumkasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, shaxsiy sifatlar va qobiliyatlar sifatida ta'riflaydi. U to'rt kichik guruhni alohida ko'satib o'tadi: kasbiy yo'nalganlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy ahamiyatga ega sifatlar va psixofiziologik xususiyatlar.
7. Jahon ta'lim amaliyotida quyidagi muhim kompetensiyalar keltirib o'tiladi:
8. turli axborot manbalari, shu jumladan, ta'lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga asoslangan bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar;

9. ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa ahzosi rolini bajarish);
10. mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan mehnat bozoridagi holatni tahlil etish va undan foydalanish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini, o'zini o'zi uyushtirish ko'nikmalarini baholash va takomillashtirish);
11. maishiy sohadagi kompetensiyalar (shu jumladan, oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);
12. madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, shaxsning ma'naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanish).¹⁵

Pedagog kasbiy kompetentligi yo'nalishlari.

Pedagogik-psixologik tayyorgarlik bo'yicha: Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'qitish shakllarining pedagogik-psixologik asoslari; psixodiagnostika usullaridan foydalanish; o'qitish shakllarida o'qitish metodlari va vositalaridan o'rinli foydalana olish; ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg'unligi, uzviyligini ta'minlay olish; pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslarini. Mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish mahorati bo'yicha: seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan didaktik talablarni; didaktik maqsadlar asosida mashg'ulotning har bir bosqichi uchun reproduktiv o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish; fanlararo, mavzulararo bog'lanishni amalga oshirish.

Ta'lim jarayonida tarbiyalashning didaktik omillari bo'yicha: ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy qadriyatlardan samarali foydalanish malakasiga ega bo'lish, o'qitish jarayonida talabalar ongiga milliy g'oyani singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini bilishi; talabalarni jamoaga birlashtirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, bajarilgan ishni baholay olish, oliy ta'limda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning shakllarini, pedagogik etika meyorlarini bilish.

Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish bo'yicha: talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati va nazariy asoslarini bilish; iqtidorli talabalarni aniqlash diagnostikasini bilish, talabalarining mustaqil ishini tashkiliy va o'quv-metodik ta'minotini yaratish yo'llarini bilish, o'quv materialini mazmuni asosida vosita, metod va shakllarini samarali tanlash va uyg'unlashtira olish.

Talabalar o'zlashtirishi monitoringini amalga oshirishga tayyorlik bo'yicha: talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini; reyting tizimi, nazorat turlari uchun differensiallashtirilgan topshiriqlarini tuza olish; talabalarining bilish faoliyatidagi tipik kamchiliklar va ularning javoblaridagi xatoliklarni aniqlashni o'rganish.

O'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga tayyorgarlik bo'yicha: ta'lim beradigan fanlari turkumini ilmiy-nazariy jihatdan o'zlashtirish, ularning rivojlanish tarixi, fanda erishilgan yutuqlar, muammolar, ilmiy-tadqiqot va izlanishlar natijalaridan xabardor bo'lish;

¹⁵ Andreyev A. Использование аутентичных материалов для изучения ономотопеи на начальном этапе обучения корейскому языку студентов вуза // корееведение в россии: направление и развитие. - 2022. - т. 3. - №. 4. - с. 61-66

darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali va o'z o'rnida foydalana olish.

Mutaxassislik bilim, ko'nikma va malakalari bo'yicha: fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va obyekti, asosiy metodlari; fanga qo'yiladigan asosiy talablar; umumiy yuklama hajmi va uning taqsimoti; fan bo'yicha tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lajak mutaxassisga qo'yiladigan: umumiy malaka talablari; ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish, kasbiy faoliyat jarayonini tashkil etish va boshqarish; fan taraqqiyotining axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga bog'liqligi; foydalaniladigan asosiy adabiyotlar; fan bo'yicha kasbiy kompetentlik darajasi; fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan gorizonttal va vertikal uzviyligi ta'minlanganligi; fanni taraqqiy etish muammolari va yechimlari.

Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishida bo'lgan munosabatiga bog'liq. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetkazishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Shu bois, mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk madaniyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida yuqori malakali o'qituvchi-mutaxassislar tayyorlash masalasi alohida ta'kidlab o'tilgan. Kasbiy tayyorgarlikka zamonaviy talablar umumiy va kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlit tizimini, muhim kompetensiyalarni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bular hozirgi zamon ta'lim sifatini belgilab beruvchi muhim omillardan sanaladi.

"Muhim kompetensiyalar" tushunchasi chet el olimlari tomonidan taqdim etilgan ko'plab zamonaviy modellarning asosida yotadi. "Muhim kompetensiyalar" insonning egallagan ko'nikma va malakalarini kasbiy faoliyat jarayonida qo'llash, shuningdek amallarni bajarishning umumlashgan usullaridan foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

A.V. Xutorskiy o'qituvchining quyidagi kompetensiyalarini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asnosida, ya'ni qadriyat va o'zini anglash -o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya- o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko'nimalarga ega bo'lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini angaly olish va o'quvchi yoshlarga tushuntira olish.

3. O'quv va bilish jarayoni - o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmalarini tahlil qila olishi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish - pedagogik faoliyat va o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat-oilaviy munosabatlar va ma'suliyat, jamiyat rivojida ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.

7. O'z ustida ishlashi - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borish. Hissiyotini boshqarish.¹⁶

Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishida bo'lgan munosabatiga bog'liq. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetkazishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Shu bois, mamlakatimizning istiqbol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk madaniyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berib, bu o'rinda kadrlar tayyorlashga kompetentli yondoshuv muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etishi bo'lib, bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanishini yoritib berish.

Ta'lim sohasida o'quvchi, o'qituvchi, oila, mahalla hamkorlikda bir maqsad sari, ya'ni, DTS talablarini o'zlashtirish va undagi me'yorlardan yuqoriroq natijalarga erishishni taqozo etishi;

DTS talablarini bajarishning asosiy omillaridan biri ta'lim jarayoniga samarali natijaga ega yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishidir;

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasini amalga oshiruvchi bilimlar izimi;¹⁷

O'qituvchi yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollanishi.

Zero, turli soha tizimlardagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. O'quv soatlarida ta'lim oluvchilarga yetarli bilim berish

¹⁶ Andreyev A. Использование аутентичных материалов для изучения ономастопеи на начальном этапе обучения корейскому языку студентов вуза // корееведение в россии: направление и развитие. - 2022. - т. 3. - №. 4. - с. 61-66

¹⁷ Tulishov, G.R. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINING TUZILMASI, MAZMUNI VA O'ZIGA XOSLIGI TUSHUNCHALAR TIZIMI. Innovative development in educational activities, 2(24), 147-158. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10433311>

hayotiy ko'nikmalarini oshirish va malakalarini shakllantirish ta'lim beruvchining kompetentsiyasiga bog'liq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak kompetentlik qobiliyatini yosh avlodga va yosh kadrlarga kengroq yoritib berish va shakllantirish orqali talabalardagi bor qobiliyatlarini ishga solgan xolda faoliyatda va kasbiy faoliyatda ko'zlagan maqsadlariga erishishda samarali va ko'plab natijalarga erishishning eng samari yo'liga aylanadi. Bu esa pedagogik faoliyatda pedagog kadirning shakllantirish jarayoniga ham yosh kadrlarni faoliyatini boshlash jarayonlarida ham o'zining natijasini yaqqol ko'rsatadigan jarayon sanaladi. Shu bilan birgalikda faoliyatdagi xujjatlar bilan ham ishlay olish ko'nikmalarini o'z ichiga qamrab oladi. Umuman olganda ishni ko'zini bilish uddabironlik zimmasiga yuklangan har qanday vazifani a'lo darajada uddalay olish olish holatlari bilan izoxlanadi. O'z – o'zidan ko'rinib turibdiki bu kabi kadrlar kasbiy faoliyatda va ish yuritayotgan sohalarida o'z - o'zidan natijadorligi va samaradorligi yuqori bo'lgan kadrlar yetishib chiqadi va u o'z o'rnida jamoa va jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-son qarori. 2020 yil 27 fevral.

2. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori.

3. National University of Uzbekistan Vol 4 | NUU Conference 2 | 2023

Google Scholar indexed Current Issues of Social Sciences and Humanities

DOI:10.24412/2181-1385-2023-2-8-18 Kitobxonlik buyuk kelajak poydevori. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. 698-703betlar

4. Andreyev A. Использование аутентичных материалов для изучения ономастопеи на начальном этапе обучения корейскому языку студентов вуза //корееведение в россии: направление и развитие. – 2022. – т. 3. – №. 4. – с. 61-66.

5. Tulishov, G.R. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINING TUZILMASI, MAZMUNI VA O'ZIGA XOSLIGI TUSHUNCHALAR TIZIMI. Innovative development in educational activities, 2(24), 147–158. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10433311>

6. Zimnyaya I.A. Педагогическая психология: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специальностям. Изд.е 2-е. Москва: Логос, 2009г. С.382.